

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№7

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
IYUL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



UZBEKISTAN

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
244 sahifa, iyul, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Yashil ish o'rinlari va ekologik ta'lim: o'zbekiston yoshlari uchun yangi imkoniyatlar	12
Rashidov Saidislom, Zaripova Mardona	
Soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash holatlarining informatsion assimetriyaga ta'siri	16
Babanazarova Nilufar Xolmatovna	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda budget mablag'laridan foydalanish mexanizmining o'rni va ahamiyati	23
Rustamova Gulmira Aliqulovna	
Dasturiy mahsulotlar logistikasi	30
Uzaqov Ortik Shaymardanovich	
Banklarda moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy natijalar ahamiyati	35
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
Oliy ta'lim muassasalarini "yashil universitet" tizimiga transformatsiya qilish istiqbollari (buxoro davlat texnika universiteti va malayziyaning oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik misolida)	39
Rahmatov Shuxrat Axatovich	
Davlat qarzi siyosati samaradorligini oshirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash	43
Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich	
Оптимизация бизнес-процессов и модернизация занятости в условиях цифровизации	47
Явкачев Шохзод Зайниддин углы	
Strategik rivojlanish sharoitida investitsion jozibadorlikning o'rni	54
Otaboyev Axmed Maxsudbek o'g'li	
Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishni rag'batlashtirish	61
Annaklichev Saxi Saparmuxamedovich	
Альтернативный подход к распределению финансовых ресурсов для эффективного финансирования высшего образования	65
Гулшат Карлибаева	
Banklarda moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy natijalar ahamiyati	70
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
O'zbekistonda jahon sivilizatsiyasiga ta'sir o'tkaza oladigan zamonaviy qarashlarga ega memolarning yetishmasligi	74
Nabiyev Hamidjon Mirzo o'g'li	
General Concept and Principles of Quality Management System	78
Atamirzayev Nodirbek Bekmirzayevich	
Transformatsiya jarayonida tijorat banklarining kreditlash faoliyatini rivojlantirish	84
Absamatov Anvar Ergashovich	
Интегральный показатель отбора экспертов для принятия коллегиальных диагностических решений	94
Uraqov Shokir Ulashovich	
Korxona faoliyatini tahlil qilishda boshqaruv hisobining roli	100
Abdurasulov Xumoyun Jalil o'g'li, Axmedov Xasan Ruzibayevich	
Raqamli iqtisodiyot va buxgalteriya hisobini tashkil etish	107
Abdullayev Abdurauf	
Moliyaviy hisobotni transformatsiya qilish	112
Sheraliyev Xayrulla Karimovich	
O'zbekiston sharoitida raqamli transformatsiyaning makroiqtisodiy indikatorlarga ta'siri	116
Samarqand davlat uiversiteti, Kuldoshev Lazizjon Sharifovich	



Raqamli iqtisodiyotning turizm sohasidagi bandlik shakllariga ta'siri.....	120
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
Xalqaro moliya-kredit institutlari bilan hamkorlikning xorij tajribasi.....	126
Qosimov Bobur Sobirovich	
Jahonda moliyaviy munosabatlar rivojlanishida korporativ tuzilmalar faoliyatining o'rni	131
Kurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich	
Iqtisodiyotning real sektor subyektlarining faoliyatini moliya-kredit mexanizmlari orqali rag'batlantirishning xalqaro tajribasi	136
Mahmudov Nurali Komilovich	
O'zbekiston sharoitida raqamli transformatsiyaning makroiqtisodiy indikatorlarga ta'siri	140
Sanakulova Iroda, Kuldoshev Lazizjon Sharifovich	
Sho'r suvni chuchuklashtirish uchun absorber sifatida foydalanilgan quyosh elementlari tuzilmasining tajriba sinov tahlillar	144
Tursunov Muxamad Nishanovich, Sabirov Xabibullo, Axtamov Tohir Zuxriddinovich, Abriyev Shaxzod Akbar o'g'li, Bobomuratov Sardor Abdurasul o'g'li	
Развитие банков в системе цифровых финансовых услуг в Республике Узбекистан.....	151
Даденова Гульхан Кенесбаевна	
Внедрение экологических стандартов в транспортной системе: проблемы и перспективы	156
Абдурахманова М.Т.	
Elektron o'quv kontenti orqali mustaqil ta'lim va tadqiqot faoliyatini rivojlantirish	162
Ahunova Tamannoxon Zokir qizi	
Raqamli transformatsiya sharoitida davlat va xususiy sektorda korporativ boshqaruv strategiyasini yangilash: O'zbekiston modeli	167
Tojialiye Sherdorbek Elmurod o'g'li, Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
Jismoniy shaxslar uchun aksiyalar bozoriga kirish strategiyalari va investitsiya imkoniyatlari: O'zbekiston va xalqaro tajriba tahlili	171
O'raqov Bekzodbek Abdurayxon o'g'li	
Energetika tarmog'ida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (mhxs) joriy etishning nazariy asoslari	176
Uralov Temur Boxodir O'g'li	
Nodavlat notijorat tashkilotlarini mablag'larini shakllanishi va nazorat qilinishi	181
Xolbekov Ulug'bek Toshpulat o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reyting ko'rsatkichlarini oshirishning strategik boshqaruv mexanizmlari	185
Mamajonova Muxlisaxon Muzaffar qizi	
Economic Efficiency of Digital Twin and Bim Technologies in Construction Enterprises.....	189
Nigmatjonova Nozima Ulmasjonovna	
Uzumchilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari	197
Tursunov To'liqin Jo'raqulovich	
Совершенствование проверки налогового аудита в Узбекистане	202
Юсупов Мансур Расулович	
Navoiy viloyatida mehnat resurslaridan foydalanishni ekonometrik modellashirish usullari	207
Hamroyev Anvar Ashurovich	
Texnika fanining bugungi kunda o'rni va ahamiyati	214
Ulasheva Shaxlo Tagayevna, Xujamurotova Mashxura G'ayrat qizi	
Globalashuv sharoitida mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalalari.....	219
Nurmurodov Olmos Eshmuradovich	
Banklarda xalqaro hisob-kitoblar hisobini takomillashtirish	226
Uzaqova Gulmira Yuldashovna	



Korxona mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar va ularning o'zaro bog'liqligi. (artel korxonasi misolida)	230
Abdug'aniyev Ilyosbek Shavkatbek o'g'li	
Gaz sanoatiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning moliyaviy jihatlarini	238
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li	
Namangan viloyatida investitsiya faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari.....	242
Inamov Farxodjon Ikrom o'g'li	



NAMANGAN VILOYATIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Inamov Farxodjon Ikrom o'g'li

Doktorant, Namangan davlat texnika universiteti, tayanch doktorant

ORCID: 0009-0002-4399-3439

E-mail: fred.inamov@gmail.com

Tel.: +998 91 755 52 00

Annotatsiya: Mazkur maqolada Namangan viloyatida investitsiya faoliyati bo'yicha olib borilgan tahlillar natijalari yoritilib, viloyat hududlarida kapital qo'yilmalar hajmining izchil o'sishi bilan bir qatorda ularning hududlararo taqsimotida kuzatilayotgan nomutanosibliklar aniqlangan. Tadqiqotda 2020–2024 yillar oralig'ida viloyat tumanlari va Namangan shahrida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan investitsiyalar ko'rsatkichlari chuqur statistik tahlil qilinib, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va hududiy rivojlanish omillariga ta'siri baholangan. Guruhlash mezonlari asosida investitsiya faolligi yuqori, o'rta va past darajadagi hududlar tasniflangan. Shuningdek, investitsiyalar hajmi, moliyalashtirish manbalari, dinamikasi hamda so'mning xalqaro valyutalarga nisbatan almashuv kursi inobatga olinib, ularning mahalliy iqtisodiyotga ta'siri o'rganilgan. Tahlillar natijasida Namangan shahri, Pop va To'raqo'rg'on tumanlarining investitsion salohiyati yuqori ekani, Mingbuloq, Kosonsoy va Norin tumanlarida esa investitsiya faolligi past darajada ekanligi aniqlangan. Muallif hududlararo tafovutlarni qisqartirish, resurslarni samarali taqsimlash va investitsiya siyosatini tizimlashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflarni ilgari suradi.

Kalit so'zlar: Namangan viloyati, investitsiya faoliyati, hududlararo tafovut, aholi jon boshiga investitsiyalar, asosiy kapital, investitsion salohiyat, iqtisodiy tahlil, statistik guruhlash, investitsiya siyosati, hududiy nomutanosiblik.

Abstract: This article presents the results of an analysis of investment activity in the Namangan region, which revealed a steady increase in capital investments alongside significant inter-district disparities in their distribution. A comprehensive statistical analysis was conducted for per capita investment indicators across the districts and Namangan city for the period 2020–2024, with an assessment of their economic, social, and spatial implications. Based on established classification criteria, the territories were categorized into high, medium, and low investment activity levels. Furthermore, the study examined the impact of total investment volume, sources of financing, investment dynamics, and exchange rate fluctuations on the development of the local economy. The findings indicate that Namangan city, Pop, and To'raqo'rg'on districts exhibit high investment potential, whereas Mingbuloq, Kosonsoy, and Norin districts demonstrate relatively low levels of investment activity. The author proposes scientifically grounded recommendations aimed at reducing regional disparities, optimizing resource allocation, and enhancing the effectiveness of investment policy in the region.

Keywords: Namangan region, investment activity, regional disparity, per capita investment, fixed capital, investment potential, economic analysis, statistical classification, investment policy, territorial imbalance.

Аннотация: В статье представлены результаты анализа инвестиционной активности в Наманганской области, в ходе которого выявлен устойчивый рост объёмов капитальных вложений наряду с выраженными территориальными диспропорциями в их распределении. Проведён углублённый статистический анализ показателей инвестиций в расчёте на душу населения по районам и городу Наманган за 2020–2024 годы, а также дана оценка их экономического, социального и пространственного воздействия. На основе установленных критериев группировки территории классифицированы по уровням инвестиционной активности: высокий, средний и низкий. Дополнительно исследовано влияние объёмов инвестиций, источников финансирования, их динамики и валютных колебаний на развитие региональной экономики. Результаты анализа показали, что наибольший инвестиционный потенциал наблюдается в городе Наманган, Папском и Туракурганском районах, тогда как низкая инвестиционная активность характерна для Мингбулакского, Косонсойского и Нарынского районов. Автор выдвигает научно обоснованные рекомендации, направленные на сокращение межрегиональной дифференциации, эффективное распределение ресурсов и совершенствование инвестиционной политики.

Ключевые слова: Наманганская область, инвестиционная активность, региональные различия, инвестиции на душу населения, основной капитал, инвестиционный потенциал, экономический анализ, статистическая группировка, инвестиционная политика, территориальная диспропорция.



KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida hududiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri – investitsiya faoliyatining samarali tashkil etilishidir. Investitsiyalar iqtisodiy o'sishni jadallashtiradi, yangi ish o'rinlarini yaratadi, infratuzilmaviy imkoniyatlarni kengaytiradi va mahalliy budjet daromadlarining ortishiga xizmat qiladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash strategiyasida investitsion siyosat ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Namangan viloyati O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati yuqori, demografik jihatdan jadal rivojlanayotgan, ishlab chiqarish va eksportga yo'naltirilgan sanoat tarmoqlari bilan ajralib turuvchi mintaqalardan biridir. So'nggi yillarda viloyatda investitsiyalarni jalb etish darajasida hududlararo tafovutlar, resurslar taqsimoti va infratuzilmaviy muvofiqlik masalalarini yanada samarali hal etish zarurati yuzaga kelmoqda. Tumanlar va shaharlar kesimida kapital qo'yilmalarning hajmi va tarkibidagi tafovutlar investitsion faollikni kompleks baholashni talab etmoqda.

Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada 2020–2024-yillarda Namangan viloyatida amalga oshirilgan investitsiyalarning miqdoriy va sifat jihatlari, aholi jon boshiga taqsimoti, moliyalashtirish manbalari, tarmoq va hududlar kesimidagi o'zgarishlar chuqur statistik tahlil qilinadi. Shuningdek, investitsiya faoliyatini baholashda zamonaviy yondashuvlar, iqtisodiy va institutsional omillarning ta'siri hamda investitsiyalarni yanada optimalashtirish yo'nalishlari aniqlanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hududiy investitsiyalar iqtisodiy o'sish, ish o'rinlari yaratish va infratuzilmani rivojlantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Kuznetsov (2020) hududiy investitsiya nazariyasida kapital qo'yilmalar samaradorligi infratuzilma, boshqaruv sifati va moliyalashtirish manbalariga bog'liq ekanini ta'kidlaydi [8].

O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi hududiy investitsion muhitni yaxshilash, xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash va tarmoqlarni diversifikatsiya qilishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi [1]. Jahon banki (2023) ham hududlarda investitsiya oqimini kuchaytirish uchun ruxsat berish tartiblarini soddalashtirish, "bir darcha" xizmatlari va davlat-xususiy sheriklikni kengaytirishni tavsiya qiladi [7].

Empirik tadqiqotlar (Djalilov & Yusupov, 2021; Karimov & Raxmatov, 2023; To'xtasinov, 2022) hududiy investitsiyalarni boshqarishda raqamli monitoring, rag'batlantiruvchi paketlar, va investitsiya salohiyatini baholash mezonlarini joriy etish zarurligini ko'rsatadi [3], [4], [6].

Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2020–2024-yillarda Namangan shahri va ayrim tumanlar (Namangan, To'raqo'rg'on, Chust)da aholi jon boshiga investitsiya darajasi yuqori bo'lgan, Mingbuloq, Kosonsoy, Norin, Uychi tumanlarida esa pastroq ko'rsatkichlar qayd etilgan [2], [5]. Bu hududlararo tafovutlarni kamaytirish uchun targetlangan rag'batlar va muvozanatli taqsimlash mexanizmlari zarurligini anglatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda Namangan viloyatida 2020–2024-yillarda aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi va hududlar kesimidagi tafovutlar statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilindi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy byulletenlari hamda Namangan viloyati hokimligi investitsiya bo'limi hisobotlaridan olindi. Tadqiqotda hududlar bo'yicha investitsiya darajasi past (1517,0–4419,7 ming so'm), o'rta (4419,7–7322,3 ming so'm) va yuqori (7322,3–10225,0 ming so'm) toifalarga ajratildi. Dinamik tahlilda yillik o'sish sur'atlari, o'rtacha qiymatlar va hududlararo tafovutlar aniqlanib, investitsiya oqimlariga ta'sir etuvchi iqtisodiy va institutsional omillar izohlandi. Metodologiya rasmiy statistik ko'rsatkichlar, guruhlash va taqqoslash usullariga asoslanib, viloyat investitsion faolligining o'ziga xos jihatlarni aniqlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Namangan viloyatida investitsiya faoliyatining chuqur tadqiqi faqat statistik ma'lumotlarni yig'ish bilangina cheklanmay, balki ularni tizimli tahlil qilish, shuningdek, investitsiyalarning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik natijalarini modellashtirish orqali amalga oshirilishi lozim. Investitsiyalarni o'zlashtirishning istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash, resurslarni optimal taqsimlash hamda investitsiya jarayonining barcha ishtirokchilariga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni belgilash orqali viloyatda samarali investitsiya siyosatini shakllantirish imkoniyati oshadi.

Ayniqsa, hozirgi iqtisodiy va geosiyosiy o'zgaruvchanlik sharoitida uzoq muddatli kapital qo'yilmalar oqimini tahlil qilish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Namangan viloyatining 2020–2024-yillar oralig'idagi investitsiya faoliyatini baholashda statistik kuzatuvlarning roli alohida ahamiyatga ega. Ma'lumotlar ayrim hollarda tarqoq va o'zaro mos kelmaydigan shaklda bo'lgani sababli ularni tizimlashtirish va guruhlash zarurati mavjud.

Statistik tahlilning muhim bosqichlaridan biri – ma'lumotlarni guruhlash va qayta ishlash jarayonidir. Guruhlash mezonlari sifatida hududlarning investitsiya salohiyati, tarmoq tarkibidagi o'zgarishlar, moliyalashtirish manbalari va sarmoya miqdorining yillik dinamikasi tanlanadi. Tanlangan mezonlar mintaqaning zamonaviy iqtisodiy holatini aks ettirishi, muammolarni aniqlashi va investitsiyalarning xususiyati hamda samaradorligini ifodalab berishi muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi statistika tizimida investitsiyalar bo'yicha ma'lumotlar, asosan, yuridik shaxslar faoliyatini qamrab oluvchi statistik hisobotlar orqali shakllantiriladi. Ushbu hisobotlar asosida korxonalar tomonidan amalga oshirilgan investitsiyalar hajmi, tarkibi va moliyalashtirish manbalari bo'yicha birlamchi ma'lumotlar olinadi. Ma'lumotlarni tahlil qilish natijasida Namangan viloyatining 2020–2024-yillarda aholi jon boshiga o'zlashtirilgan investitsiyalar dinamikasi iqtisodiy sikllar, inflyatsiya darajasi, import-eksport balansidagi o'zgarishlar hamda davlat investitsiya siyosatining yo'nalishlariga bevosita bog'liqligi kuzatiladi.

Quyidagi jadvalda Namangan viloyati va uning tumanlarida aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi (ming so'mda) keltirilgan (1-jadval).

1-jadval : Namangan viloyatida aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi (ming so'm)

Hududlar		2020	2021	2022	2023	2024	2024-yilda 2020-yilga nisbatan oʻzgarish (+,-)
Mingbuloq tumani		2325,9	2727,6	3430,2	3491,2	3980,0	1654,1
Kosonsoy tumani		2679,7	2361,5	2503,1	3194,4	3519,2	839,4
Namangan tumani		5953,2	6251,0	8783,3	7776,6	9129,2	3176,0
Norin tumani		2330,7	2154,8	2750,9	2589,3	2932,9	602,2
Pop tumani		3570,2	4847,5	4134,3	7177,3	7716,2	4145,9
To'raqo'rg'on tumani		5286,9	4468,1	6660,1	8191,5	10163,3	4876,4
Uychi tumani		2548,4	1765,6	1517,0	3473,9	3960,5	1412,0
Uchqo'rg'on tumani		4517,5	4684,3	4851,0	5017,8	5184,6	667,2
Chortoq tumani		1938,8	2982,1	3005,5	6385,9	7528,3	5589,5
Chust tumani		3905,7	4254,9	4916,8	7718,6	9093,8	5188,2
Yangiqo'rg'on tumani		2260,9	2238,1	3066,4	3086,3	3645,1	1384,2
Namangan shahri		7012,0	8229,2	8280,0	9713,4	10225,0	3213,0
Yomon	1517,0-4419,7	O'rta		4419,7-7322,3		Yaxshi	7322,3-10225,0

2020–2024-yillarda Namangan shahri va uning tumanlarida aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar dinamikasi uchta toifada tasniflangan: 1517,0–4419,7 ming so'm – past daraja, 4419,7–7322,3 ming so'm – o'rta daraja, 7322,3–10225,0 ming so'm – yuqori daraja. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, yuqori darajadagi investitsiya faolligi asosan Namangan shahrida kuzatilgan bo'lib, ko'rib chiqilayotgan davr mobaynida aholi jon boshiga o'rtacha 8691,9 ming so'm investitsiya to'g'ri keladi. Keyingi o'rinlarda Namangan tumani (7578,9 ming so'm) va To'raqo'rg'on tumani (6954,0 ming so'm), shuningdek, Chust tumani (5978,0 ming so'm) yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan hududlar sifatida ajralib turadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

2020–2024-yillar oralig'ida Namangan viloyatida amalga oshirilgan investitsiya oqimlari hududlar kesimida ma'lum darajada tafovutlarni ko'rsatadi. Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, Namangan shahri, Pop va To'raqo'rg'on tumanlari investitsiya jalb etishda nisbatan yuqori faollikka ega bo'lgan, Mingbuloq, Norin, Kosonsoy va Uychi tumanlarida esa investitsiyalar darajasi boshqa hududlarga nisbatan pastroq qolmoqda. Bu holat hududlararo investitsion salohiyatni to'liq safarbar etish va samarali taqsimlash zaruratini ko'rsatadi. Maqolada taqdim etilgan statistik guruhlash va dinamik tahlillar asosida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan investitsiyalar darajasi hududlarda amalga oshirilayotgan investitsion siyosat samaradorligini baholashning muhim ko'rsatkichlaridan biri ekanligi aniqlanadi. Amaldagi mexanizmlarni takomillashtirish, investitsiya oqimlarini muvozanatli taqsimlash hamda moliyalashtirish manbalari diversifikatsiyasini ta'minlash orqali investitsiya samaradorligini oshirish mumkin. Shu bilan birga, investitsiyalarni hududlararo muvozanat asosida taqsimlashni ta'minlovchi tartibotlarni joriy etish, past investitsion faollikka ega tumanlar uchun soliq imtiyozlari, yer ajratish va infratuzilma subsidiyalarini o'z ichiga oluvchi rag'batlantiruvchi choralarni kengaytirish, investitsiyalarning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik samaradorligini baholash indikatorlarini ishlab chiqib, ularni investitsiya siyosatini shakllantirish jarayonlariga integratsiya qilish, hududiy investitsiya monitoring tizimini takomillashtirish, tarmoq va hudud-



lar kesimidagi o'zgarishlarni real vaqt rejimida kuzatish imkonini beruvchi raqamli platformalarni joriy etish maqsadga muvofiqdir. Umuman olganda, Namangan viloyatida investitsiya faoliyatini yanada faollashtirish uchun tizimli, hududiy xususiyatlarni inobatga oluvchi va uzoq muddatli istiqbolga yo'naltirilgan investitsion siyosat zarur bo'lib, bu yondashuv nafaqat iqtisodiy o'sishni jadallashtirishga, balki hududiy ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmoni. // www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. "Hududlar bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar" statistik byulletenlari (2020–2024). – Toshkent: UzStat, 2020–2024. www.stat.uz
3. Karimov, K., & Raxmatov, A. (2023). Investitsion faoliyatni hududiy boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, №3(51), 75–81.
4. To'xtasinov, B. (2022). Hududiy investitsion salohiyatni baholash mezonlari va rivojlantirish strategiyalari. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 160 b.
5. Regional Investment Report of Namangan Region (2024). – Namangan viloyati hokimligi huzuridagi Investitsiyalar bo'limi hisobotlari. namangan.uzinvest.uz
6. Djalilov, S., & Yusupov, R. (2021). Investment Climate and Regional Development in Uzbekistan. // Central Asian Economic Review, Vol. 3(4), 44–57.
7. World Bank. (2023). Uzbekistan: Enhancing Private Sector-Led Growth Through Regional Investment Policies. – Washington, D.C.: World Bank Group.
8. Kuznetsov, A. V. (2020). Теория и практика региональных инвестиций. – Москва: Инфра-М, 304 с.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100